

**PEDAGOGIKA FANINI O'QITISH ORQALI TALABALAR KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH**

Rashidova Dildora Mansur qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti maktabgacha ta'lim kafedrasi assistenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14599627>

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika fani, uning ahamiyati, bu fanni o'qitish oraqali talabalar kompetensiyasini rivojlantirish yo'nalishlari, olimlar qarashlari haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, talaba, kompetensiya, yo'nalishlar, rivojlantirish, o'qitish, pedagogik ko'nikma, kreativlik.

Pedagogika fani — bu ta'lim va tarbiya jarayonlarini o'rghanadigan fan sifatida, insonlarni rivojlantirish va ularga bilim berish jarayonlarini tahlil qiladi.

Pedagogika fanining asosiy maqsadi — ta'limni samarali tashkil etish va rivojlantirish, shuningdek, shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashdir. Buyuk allomalarimizdan bo'lgan Abu Rayhon Beruniy ta'limotiga ko'ra inson kamolotida 3ta narsa muhim rol o'yaydi.

Bular: ta'lim-tarbiya, ijtimoiy muhit va irsiyatdir. Shaxsni har tomonlama kamol topishida muhim omil sanalgan ta'lim- tarbiya tushunchasi asosan pedagogika fanida o'rgatiladi. Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagog o'z kasbini sevishi, ta'lim-tarbiya jarayoniga mas'uliyat bilan yondashishi, yetishtirib chiqaradigan bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mahorat, pedagogik texnika, pedagogik takt, kompetensiyalar shakllangan bo'lishi kerak. Albatta, bu borada talabalardan ham mehnat, mashaqqat, o'qish ,izlanish talab qiladi.

Allomamiz Ibn Sino, bejizga "Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir" degan fikrni aytmagan. Shu sababli pedagogika fani o'qitishning samaradorligini oshirish, shaxsning rivojlanishini ta'minlash, o'quvchilarni ijtimoiylashtirish, innovatsiyalarni tadbiq etish, yangi bilimlar yaratish kabi qator vazifalarni o'z oldiga qo'yadi. Pedagogika fanini o'qitish orqali talabalar kompetensiyasini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Pedagogika — ta'lim va tarbiya jarayonlarini o'rghanadigan fan sifatida, talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta'minlaydi, balki ularning amaliy kompetensiyasini rivojlantiradi. Kompetensiya esa, shaxsning o'z bilimlarini va ko'nikmalarini turli vaziyatlarda samarali qo'llay olish qobiliyati sifatida tushuniladi. Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Kompetensiya tushunchasi nisbatan yaqindan boshlab, 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlardan keng qo'llanila boshlandi. Pedagogika fanini o'qitish jarayonida talabalar kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Nazariy bilimlarni amaliyatga tadbiq etish: Pedagogika fanini o'qitishda talabalar nazariy bilimlarni nafaqat yodlash, balki ularni real hayotdagi ta'lif va tarbiya jarayonlariga tadbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirishlari lozim. Bu, o'z navbatida, ularning pedagogik qarorlar qabul qilish va o'quvchilarga samarali ta'lif berish qobiliyatini shakllantiradi.

2. Kreativ fikrlash va muammolarni hal etish: Talabalar pedagogika fanidan o'qish orqali kreativ fikrlashni va turli ta'lif tizimlarida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishni o'rghanadilar. Bu, ayniqsa, o'quv jarayonini optimallashtirish va yangi metodlarni ishlab chiqish uchun zarurdir.

3. Jamoa bilan ishlash: Pedagogika fanini o'qitishda talabalarni guruh ishlarida ishtiroy etishga undash, ularga jamoa bilan samarali ishlashni o'rgatish kerak. Bu kompetensiya ta'lif va tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan ishlashda, hamda o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishda muhim ahamiyatga ega.

4. Pedagogik ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash: Pedagogika fani talabalarga ta'lif tizimining asosiy metod va texnikalarini o'rgatadi, bu esa ularning pedagogik ko'nikmalarini amaliyotda sinovdan o'tkazish imkonini beradi. Masalan, sinfda dars o'tkazish, o'quvchilarni rag'batlantirish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish.

5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash: Zamonaviy pedagogika axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni ta'lif jarayonida muhim deb biladi. Talabalar pedagogika fanini o'rghanishda zamonaviy o'quv texnologiyalarini (masalan, interaktiv ta'llim platformalari, onlayn resurslar va boshqalar) samarali qo'llashni o'rghanadilar.

6. Ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish: Pedagogika fanini o'rghanish orqali talabalar ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarini ham rivojlantiradilar. Bu, ayniqsa, turli millat va madaniyatlarni tushunish, xilma-xil guruhlar bilan ishlashda muhimdir.

Shu tariqa, pedagogika fani ta'lifning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Pedagogika fanini o'qitish jarayonida talabalarning kompetensiyasini rivojlantirish uchun integratsiyalashgan yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlar, kreativ va interaktiv metodlar qo'llanishi zarur. Bu usullar talabalarni nafaqat pedagogik bilimlar bilan ta'minlash, balki ularning amaliy ko'nikmalarini, ijtimoiy va intellektual kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

REFERENCES

1. Mukarram Axmedova. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent.2018.
2. Karimova V.M., Hayitov O.E., Umarova N.SH. Boshqaruv sohasidagi professional kompetentsiya asoslari: Monografiya. / Prof. V.M. Karimova tahriri ostida. - T.: "Fan va texnologiya", 2008. - 120 b.
3. Митяева А.М. Компетентностная модель многоуровневого высшего образования (на материале формирования учебно - исследовательской компетентности бакалавров и магистров). Автореферат дисс. док. пед. наук.
4. Himmataliyev.D.O. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mexanizmi.//Современное образование(Узбекистан).2020.№7 (92).
5. Андреев А. Знания и компетенции. //Высшее образование в России. -2005. - №2.